

XOTIN-QIZLAR TA'LIMIGA OID PEDAGOGIK TA'LIMOTLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Saidova Barno Narzullayevna-

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori(PhD), v.b.dotsent

Annotatsiya: O'tmishda boshqa, ayniqsa, Yevropa mamlakatlaridan farqli o'larоq, Sharqdagi ayollar jamiyatda o'zlarining alohida mavqeiga ega bo'lganlar. Tuzumlar rivojlangan sari, nutqning rivojlanishi bilan ayollarning yozish, madh etish kabi qobiliyatları qat'iy epitet oladi. Ko'pgina manbalar ayollarning hayotdagи o'rni, jumladan, ularning ta'limi haqida sukut saqlagan. Ammo ushbu tadqiqotda, ma'lumotlarning juda oz miqdorda mavjudligiga qaramay, qadim zamonalardan buyon O'rta Osiyo xalqlari ayollarini ta'limi va tarbiyasining tarixini o'rganib, bu jarayonning ilmiy ahamiyatini yoritishga harakat qilingan.

Аннотация: В отличие от других, особенно европейских стран в прошлом, женщины на востоке занимали особое положение в обществе. По мере развития складок, по мере развития речи такие способности женщин, как письмо, похвала, приобретают устойчивый эпитет. Многие источники умалчивают о роли женщин в жизни, в том числе об их образовании. Но в данном исследовании, несмотря на наличие очень небольшого количества информации, была предпринята попытка осветить научную значимость этого процесса, изучив историю образования и воспитания женщин народов Средней Азии с древнейших времен.

Abstract: Unlike other, especially European countries in the past, women in the east occupied a special position in society. With the development of folds, with the development of speech, such abilities of women as writing, praise, acquire a stable epithet. Many sources are silent about the role of women in life, including their education. But in this study, despite the presence of a very small amount of information, an attempt was made to highlight the scientific significance of this process by studying the history of education and upbringing of women of the peoples of Central Asia since ancient times.

Kalit so'zlar: tuzum, dunyoviy ta'lim, maktabdor ayollar, uyg'onish davri, o'rganish ob'yekti, dunyoviy bilim, pedagogika tarixi, rivojlanish bosqichlari.

Ключевые слова: режим, светское образование, школа, женщины, эпоха Возрождения, объект изучения, светское знание, История педагогики, этапы развития.

Keywords: regime, secular education, school, women, Renaissance, object of study, secular knowledge, History of pedagogy, stages of development.

Tarixiy davr nuqtai nazaridan, ma'rifatparvarlik va jadidchilik davri hamda ular vakillarining faoliyati haqida pedagogik muammo sifatida, ko'p ilmiy izlanishlar va fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Muammo nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni respublikalar va xorijda ham olimlarning o'rganish ob'ektiga aylangan. Ammo, ma'rifatparvarlik davridagi ayollarning ayollar dunyoviy ta'lmini joriy etish yo'lidagi faoliyati haligacha mukammal o'rganilmaganicha qolib ketgan. Bu borada mualliflar Z.Abdirashidov, V.Kocharov, A.Muxtarov, N.Ostromov, M.Qodirova, A.Rasulovlar tomonidan yozilgan monografik risololar, dissertatsiyalar va davriy matbuotlarda nashr etilgan maqolalarda esa muammoning ma'lum bir qismlari qamrab olingan. Ushbu tadqiqot ishida jadidchi ayollar va ularning dunyoviy bilimlarni qo'llab-quvvatlashdagi roli haqida batafsil ma'lumot berilgan, ayniqsa, o'sha davrdagi ayollarning tashvishli taqdiri asarlar tahlili asosida ochib berilgan. Jadidchilik harakatlari avj olgan paytda maktabdor ayollar va ularning ta'lim-tarbiyani, ayniqsa milliy tarbiyani yoshlar ongiga singdirish hamda milliy o'zlikni saqlab qolish borasidagi takliflari pedagogik jihatdan tahlil etildi.

Ushbu tadqiqot doirasida tadqiqotchi tomonidan ayollarning qadimgi davrlardagi maqomiga oid bibliografik ma'lumotlar, ba'zi asl manbalar ham diqqat bilan o'rganildi. Jumladan, fors va dari tillaridagi Mahdi Obodiy, Rahmoniy Mogahlarning asarlarida berilgan qimmatli ma'lumotlar tahliliy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Shuningdek, ingliz tilidagi Yevropa va Amerika mualiflari - Shabbir Ahmad, Michelle Lee Folk Regina, Farzana Moon va boshqalarning asarlaridan ham foydalanildi. Tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida masalaning yurtimizdagi pedagog olimlar tomonidan emas, balki horijlik sharqshunos olimlar tomonidan o'rganiqligiga guvoh bo'ldik. Ularning monografik asarlarida O'rta Osiyo ayollarining ta'limgartarbiya sohasidagi faoliyatlar o'rganiqlan, ammo tizimlashtirilmagan.

O'tmishda boshqa, ayniqsa, Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, Sharqdagi ayollar jamiyatda o'zlarining alohida mavqeiga ega bo'lganlar. Tuzumlar rivojlangan sari, nutqning rivojlanishi bilan ayollarning yozish, madh etish kabi qobiliyatlar qat'iy epitet oladi. Ko'pgina manbalar ayollarning hayotdagi o'rni, jumladan, ularning ta'limi haqida sukut saqlagan. Ammo ushbu tadqiqotda, ma'lumotlarning juda oz miqdorda mavjudligiga qaramay, qadim zamonlardan buyon O'rta Osiyo xalqlari ayollarini ta'limi va tarbiyasining tarixini o'rganib, bu jarayonning ilmiy ahamiyatini yoritishga harakat qilingan.

Buyuk shoir va gumanist Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" dostonida mardlik va jasorat bilan hech qanday tarzda erkaklardan kam bo'lmagan va ularga qarshi kurashga chiqqan ko'plab ayollarning obrazini yaratgan. Masalan, Gurdoferid aslida Rustam ismli qahramonning qizi edi. Uning boshqa qizi Bonui Gushtosp Gevning rafiqasi edi. Dostonda uning ismi ham tilga olingan. Uning uchinchi qizi ham bor edi – Zarbonu va u ham jasorat bobida singillaridan hech qanday farqi yo'q edi¹.

Sharq uyg'onish davrda ayollarga e'tibor, ularning ta'limgartarbiya xilma-xil janrdagi og'zaki va yozma ijod namunalarida o'z aksini topgan. Masalan, mashhur hind qomusi «Kalila va Dimna», Nizomulmulkning «Siyosatnama», Nosir Xisravning «Saodatnama», «Ro'shnoyinoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Kaykovusning «Qobusnama», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston» kabi asarlarida ayloning jamiyatdagi o'rni, oila tarbiyasini kabi masalalar ijtimoiy turmushning eng muhim masalalari sifatida talqin etiladi.

Jumladan, «Kalila va Dimna»da majoziy, allegorik obrazlar vositasida hayotdagi salbiy ko'rinishlarga qarshi o't ochiladi, insonparvarlik, aql-idrok ulug'lanadi. Ayollarni jamiyatdagi o'rniga falsafiy yondashuvlar asosida alohida o'rg'u beriladi. Ta'limgartarbiya qanday kuch ekanligi tasivrланади. Kishilik jamoasining qaysi bosqichi olib qaralmasin, xiyonat va jinoyat, pastkashlik, ig'vo, fisq-fasod, zolimlik, munofiqlik inson zotini ulug'lagan emas. Aksincha, bunday axloqqa zid nuqsonlar taraqqiyot yo'liga to'g'anoq bo'lgan, jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, O'rta asr Sharqining buyuk mutafakkirlari o'zlariga qadar mavjud bo'lgan barcha ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirib, deyarli hamma sohalarda ilmiy asarlar yaratdilar, bu bilan ham kifoyalanganmay, mavjud ilmlarni tasnif qildilar, xorijiy tillardagi mashhur asarlarni arab, fors va turk tillariga tarjima qilish ishlari bilan shug'ullandilar. Shunday xizmatlari bilan «yagona mintaqqa madaniyati» deb atalishi mumkin bo'lgan tarixiy yangi jarayonga asos soldilar. O'z navbatida ushbu tarixiy jarayon boshqa xalqlar ilm-ma'rifatiga kuchli ta'sir etib, **Uyg'onish davri** deb ataluvchi ulkan ma'rifatparvarlik davrining boshlanishiga asos bo'ldi. Shunday tarixiy davrda, ayollar ta'limgartarbiya jamiyatning e'tibor markazidan o'rinni omasligi mumkin emas edi.

Shuning uchun ham, biz Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy kabi buyuk qomusiy olimlar asarlarida, ularning ilmiy-nazariy ta'limgartarbiya masalalariga, jumladan ayollar ta'limgartarbiya keng o'rinni berilganiga, chunonchi, tarbiya muammolariga jahon madaniyati mezonlari bilan yondashilganiga guvoh bo'lamiz va anglagan holda o'shbu ma'lumotlarni yanada chuqr va teran o'rganish maqsadida yanagi ilmiy ilmiy izlanishlarga qoldirdik.

¹ Махди Иқболий Занон дар торихи кухани Ирон. Махдиобод, Пардисон, 2004. –66 б.

Massaget qabilasining malikasi To'maris², Parfiya xalqining qizi Rodogun³ haqidagi Gerodotning hikoyalari, tarixchi Narshaxiyning 20 yil davomida arab bosqinchilariga qarshi donolik bilan qarshilik ko'rsatgan malika Xotun⁴ haqidagi hikoyasi ayollarning jismoniy tayyorgarligi, faolligi, vatanparvarligining yorqin namunasidan dalolat beradi. Ular shaxsan o'zlarini jang maydoniga otlarida qilich ko'tarib, o'zlarining xalqiga hamdardlik bildirib, maydonda jasorat ko'rsatganlar.

Qadimgi ayollar ko'pincha tezyurur otlarda poyga qilish kabi sport turlari bilan shug'ullanishgan. O'sha paytda kamondan otish, otda yurish va qurol ishlatish san'ati bolalikdan ayollar uchun odatiy jismoniy mashqlar edi⁵. Nasroniylik ilohiyotchisi Aleksandriyalik Klement shunday yozadi: "Saklar ayollar uchib ketishganida, erkaklar kabi orqaga o'girilib, otlaridan o'q uzdilar"⁶.. Ushbu misollar qadimgi davrlarda mahorat maktablarining dargohida qizlar va ayollarning faol ta'lim-tarbiya olishlaridan darak beradi.

Qadimgi davrlarda ayollarning doimiy jangovar tayyorgarligini arxeologlar tomonidan Kavkaz, Turkmaniston, O'zbekiston va Qirg'izistonдан topilgan topilmalar bilan ham baholash mumkin. Ushbu dafn marosimlarida ayollar jasadlari qoldiqlari yonidan qurollar ham topilgan⁷. Miloddan avvalgi I asrda yashagan Rim tarixchisi Pompey Trog skiflar kuchli qudratga egaligi kabi ulug'vor ham bo'lganligini yozgan. Ular Parfiya va Baqtriyaga, ularning xotinlari – Amazonlar qirolligiga asos solishgan. Skiflar har doim eng qadimgi qabilalar deb hisoblangan va ular qadimlilik borasida misrliklar bilan bahslashishgan.

Ko'plab qadimgi tarixchi va yozuvchilarning xotiralarida O'rtta Osiyodan kelgan oddiy qizlarning jasorati va mardligi aks ettirilgan. O'smirlik davrida, to'ydan oldin odatda qizlar va o'g'il bolalar o'zlarining sevimli sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazardilar. Qadimgi Rim yozuvchisi va faylasufi Klavdiy Elian o'z hikoyalarida, agar saklardan birortasi qizga uylanmoqchi bo'lsa, u bilan kurashish kerakligini yozadi. Agar kurashda ustunlik qizga tegishli bo'lsa, mag'lubiyatga uchragan polvon uning asiriga aylanadi va to'liq uning ixtiyoriga keladi. Faqatgina qizni yutish orqali yigit uni o'z ixtiyoriga olishi mumkin bo'lgan.

Ko'plab arxeologik topilmalar ot sportida ayollarning ustunligini ko'rsatadi. Qora-kulrang otga minib, chap qo'lida jilovni ushlab turgan ayolning qo'lidagi tashqi tomonidagi yozuvda, "olijanob xonim" deb yozilgan, shuningdek, ot sportida zodagon ayollarning ustunligidan dalolat beradi⁸.

Qadimgi Panjikent devorlaridan topilgan devoriy rasmda, qo'llarida qilich bilan ikki jangchi o'rtasida bo'lib o'tgan duel tasvirlangan, ulardan biri naqshli libos, shim va boshiga dubulg'a bilan qalpoq kiygan

² Баженова Л.В. Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред.. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 172 б.

³ Расулов А., Насриддинова Д. Жадидчилик ҳаракатида татар аёлларнинг урни. //Жадид маърифатпарварлик ҳаракатнинг ғоявий асослари. Т. «Тошкент ислом университети», 2016.

⁴ Абу Бакр Мухаммад ибн Дж'а'фар ан-Наршахи. Та'рих-и Бухара. (История Бухары). Перевод, комментарии и примечания Ш.Б. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: SMIA – SIA, 2011. – 600 б.

⁵ Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

⁶ Баженова Л.В. Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред.. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 179 б.

⁷ Гафуров Б.Г. Тоҷикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.

⁸ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б

ayoldir. Ushbu tasvir jang maydonida ayollarning jasorati va shijoati haqida ma'lumot beradi. Arxeologlar tomonidan kamon, xanjar va nayzali ayollarning tasviri ham topilgan⁹.

Kamondan otish, ot sporti va jang maydonlarida ayollarga qarshilik ko'rsatish qiyin edi. Ba'zi ayollar erkaklar zirihini kiyib, qo'shinni boshqarganlar. Ular qo'llarida bayroq ushlab raqiblarga jasorat bilan hujum qiladigan mukammal harbiy qo'mondonlar edilar.

Qadimgi davrlar tarixini ob'ektiv o'rganish asosida Sharq ayollarining ta'lif dasturi xilma-xil va qiziqarli bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Sharqning asosiy urf-odati va yaxshi tarbiya atributi hisoblangan uy ishlarini olib borish, bolalarni tarbiyalash va keksa oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish bilan bir qatorda, ayollar ovga chiqib, uylarini dushman hujumlaridan himoya qilganlar va bular barchasi jismoniy chiniqishni talab qilgan. Yosh qizlar tikishni, rasm chizishni, sanashni bilar, shuningdek musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirar, musiqa asboblarida chalib, qo'shiq aytardilar.

Arxeologik va yozma materiallarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, antik davrda professional ustaxonalar va musiqa maktablari keng tarqagan. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ko'plab ayollar shaxmat va narda o'ynashgan, she'r yodlagan va qo'shiqlar yaratgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Маҳди Иқбалий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. –66 б.
2. Баженова Л.В. Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред.. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 172 б.
3. Расулов А., Насридинова Д. Жадидчилик харакатида татар аёлларнинг урни. //Жадид маърифатпарварлик харакатнинг гоявий асослари. Т. «Тошкент ислом университети», 2016.
4. Абу Бакр Мухаммад ибн Джак'фар ан-Наршахи. Та'рих-и Бухара. (История Бухары). Перевод, комментарии и примечания Ш.Б. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: SMIA – SIA, 2011. – 600 б.
5. Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.
6. Баженова Л.В. Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред.. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 179 б.
7. Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.
8. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б
9. Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

⁹ Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.